

Sadaf Sharipova

*Buxora davlat universiteti
Madaniyatshunoslik mutaxassisligi magistranti
E-mail: sadafsharipova3@gmail.com*

INTERAKTIV ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING MUZEY TURIGA MOS METODIKASINI TANLASHGA DOIR

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada interaktiv zamonaviy texnologiya vosita hamda xususiyatlarni amalda qo'llashda va faoliyatini yo'lga qo'yishda muzey turi, sharoiti va tematikasidan kelib chiqib, unga mos metodika ishlab chiqish to'g'risida so'z yuritilgan. Ma'lumki, muzeylar asosan katta besh guruhga bo'linadi, bularga san'at muzeylari, tarix muzeylari, fan va texnologiya muzeylari, tabiiy tarix muzeylari va bolalar muzeylari kabi kategoriyalarga ajratiladi. Ishimizda har bir muzey turiga alohida to'xtalib o'tilgan, tasnif qilingan va mos metodlar tanlanilgan.*

***Kalit so'zlar:** san'at muzeylari, tarix muzeylari, fan va texnologiya muzeylari, tabiiy tarix muzeylari, bolalar muzeylari.*

ON SELECTING AN INTERACTIVE MODERN TECHNOLOGY METHODOLOGY APPROPRIATE FOR MUSEUM TOURS

***Abstract.** This article discusses the development of a methodology tailored to the specific type, conditions, and thematic focus of a museum for the practical implementation and effective integration of interactive modern technological tools and features. Museums are generally classified into five major categories: art museums, history museums, science and technology museums, natural history museums, and children's museums. In this study, each museum type is examined separately, systematically categorized, and appropriate methodological approaches are proposed accordingly.*

***Keywords:** art museums, history museums, science and technology museums, natural history museums, children's museums.*

XXI asrda raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, madaniyat va ta'lim tizimiga ham chuqur kirib keldi. Muzeylar

endilikda nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlovchi maskan, balki interaktiv, innovatsion va ta'limiy muhit sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Zamonaviy tashrif buyuruvchilar, ayniqsa, yosh avlod vakillari, an'anaviy ekspozitsiyalardan ko'ra ko'proq interaktiv, multimediamiy va immersiv tajribalarni kutmoqda. Shu bois muzey faoliyatiga interaktiv zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

San'at muzeylarining asosiy maqsadi hamda falsafasiga to'xtaladigan bo'lsak, san'at muzeylari asosan san'at asarlarini yig'ish, saqlash, o'rganish, namoyish etish va talqin qilishga bag'ishlangan. Ushbu tarixiy munosabatning boshqa sabablari san'atni yaratish va unga egalik qilish bilan bog'liq jarayon bo'lib, rassomning o'z ijodiy niyatlari bilan ham aloqadordir. Bir muzey xodimi rassomlar, odatda, tomoshabinga qandaydir ta'sir ko'rsatishni xohlashini, ularni tarbiyalashdan ko'ra ko'proq hissiy ta'sir qilishni maqsad qilishini ta'kidlagan. Ularning asosiy vazifasi vizual san'atning estetik, madaniy va tarixiy ahamiyatini namoyish etishdan iborat. San'at muzeylari rasmlar, haykallar, sopol buyumlar va boshqa muhim badiiy artefaktlar to'plamlarini o'z ichiga oladi. Ushbu muzeylarning asosiy ta'limiy maqsadi, odatda, "tashrif buyuruvchining didini va estetik qabul qilish qobiliyatini shakllantirish"dan iboratdir [1, 47-b]. San'at muzeylari umumiy san'at merosining himoyachisi sifatida faoliyat yuritadi va qadimgi haykallardan tortib zamonaviy ko'rgazmalarigacha bo'lgan asarlarning jamoatchilik uchun mavjudligini ta'minlaydi. San'atni talqin qilish, bunda kechayotgan o'rganish jarayoni ko'p jihatdan tashrif buyuruvchining shaxsiy tajribasiga hamda muzey kuratori tomonidan taqdim etilgan kontekstual ma'lumotlarga bog'liq bo'ladi. Ba'zi boshqa turdagi muzeylar ilmiy bilimni yetkazishda asosiy hisoblansa, san'at muzeylari ko'pincha shaxsiy tafakkur, hissiy ishtirok va turli xil talqinlarni ko'rsatishga harakat qiladi. San'at muzeylarida san'atning shaxslar bilan ko'p qirrali muloqotini, tanqidiy tafakkur, hissiy intellekt va go'zallik hamda ixtirolarga hurmat va qiziqishlarni rivojlantirishga asosiy urg'u beriladi. San'at muzeylarining asosiy funksiyasi san'atning geografik, vaqt va madaniy chegaralar bilan cheklanmasdan

tashrif buyuruvchining estetik madaniyatini, estetik didini, kreativlik darajasini rivojlanishiga hamda shakllantirishga yordam berishdan iborat. Bu jihatdan ular muhim ijtimoiy makon sifatida alohida o'rin tutadi [2]. San'at muzeylarida ko'rsatiladigan ko'rgazmalar va ekspozitsiyalar, asosan, turli davrlar va madaniyatlar o'rtasida aloqa o'rnatishga intiladi va umumiy mavzular hamda o'ziga xos nuqtayi nazarlarni yoritadi. Bunda muzey xodimlari va kurator tomonidan yetkazilgan sharhlar va tushuntirishlar tashrif buyuruvchilarni ilgari shakllangan tushunchalarni qayta ko'rib chiqishga va dunyoqarashlarini kengaytirishga yordam beradi.

San'at muzeylari kuratorlari odatda mavjud bo'lgan axborot yetishmovchiligini to'ldirishga harakat qiladilar: ular san'at asarlarini tomosha qilish va mushohada qilish uchun yo'llanmalar beradilar, shuningdek ma'ruzalar, bukletlar va yo'naltirilgan ekskursiyalarni taklif etadilar. Bu yondashuvlar ekspozitsiyalarni ta'limiy vositalar bilan to'ldiradi va ko'rgazmalarning an'anaviy yo'nalishini – san'at asarlarini hayrat va diqqatga sazovor obyekt sifatida namoyish etishni – saqlab qoladi. Hozirda tashrif buyuruvchilarning ko'proq axborotga bo'lgan talabi va kengroq auditoriyani jalb qilish zarurati sababli, ayrim san'at muzeylari ko'rgazma zallarida kompyuterga asoslangan texnologiyalardan foydalanmoqda. Ushbu markazlarda odatda artefaktlar juda kam bo'ladi, yoki umuman mavjud bo'lmaydi; asosiy e'tibor yuqori darajada interaktiv, tadqiqotga yo'naltirilgan ekspozitsiyalar va faoliyatlarga qaratiladi. Bunday muassasalar ko'pincha shovqinli muhitga ega bo'lib, yosh auditoriya salmoqli ulushni tashkil etadi, bu esa aksariyat hollarda ekskursiyaga kelgan maktab o'quvchilarining ko'pligi bilan izohlanadi. Auditoriyaning katta qismini qiziqarli va maroqli mashg'ulot, jarayon hamda ushbu muzey va markazlarga xos bo'lgan "aha!" tajribalari jalb etadigan tasodifiy tashrif buyuruvchilar tashkil qiladi [3, 45-b]. Kompyuterlar va ular bilan bog'liq texnologiyalar imkoniyatlari kolleksiyaning kattaroq qismini tashrif buyuruvchilarga taqdim etishga, shuningdek belgilarda yoki

ma'ruzalarda berilishi amalda mumkin bo'lmagan darajada ko'p ma'lumotni foydalanuvchi boshqaruvida ochishga imkon beradi.

Tarix muzeylari insoniyat tarixiga oid buyumlar va ma'lumotlarni to'plash, saqlash, talqin qilish va namoyish etishga bag'ishlangan. Ularning asosiy vazifasi, avvalo, hikoya qilishdir – ya'ni buyumlar, hujjatlar, og'zaki tarixlar va tasvirlar orqali muayyan davrlar, voqealar, madaniyatlar yoki jamiyatlar haqida yaxlit tarixiy manzarani yaratishdan iborat [3, 62-b]. Ular o'tmishni chuqurroq anglashga yordam berishni, uning bugungi kunga ta'sirini tan olishni va kelajak haqidagi qarashlarimizni shakllantirishni maqsad qiladi. Bu faqat sanalarni yodlash emas, balki jamiyatlarni shakllantirgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy kuchlarni tushunishdir. Ko'plab tarix muzeylari uchun muhim tamoyillardan biri – kontekstni taqdim etishdir. Oddiy qishloq xo'jaligi asbobi, agar u dehqonchilik jamiyati haqidagi hikoya ichida ko'rsatilsa, mehnat, ixtirochilik va jamoaviy hayotni namoyon etuvchi muhim dalilga aylanadi. Shuningdek, ular turli nuqtayi nazarlarni taqdim etish kabi murakkab vazifa bilan yuzlashadilar. Agar tarix ko'pincha g'oliblar tomonidan yozilganligini nazarda tutadigan bo'lsak, ko'plab muzeylar e'tibordan chetda qolgan jarayonlarni yoritishga, unga oid dalillarni namoyish qilishga intiladilar.

Tarix muzeylari sohasi nihoyatda rang-barang bo'lib, ular o'tmish bilan turli usullar orqali muloqot qilish imkonini beradi.

Umumiy tarix muzeylari. Bunday muzeylar odatda milliy yoki hududiy tarix kabi keng tarixiy davrlarni qamrab oladi, siyosiy taraqqiyot, muhim voqealar va madaniy evolyutsiyani asrlar davomida yoritadi. Masalan, Amerika Milliy tarix muzeyi prezidentlarga oid eksponatlardan tortib ommaviy madaniyat timsollarigacha bo'lgan turli mavzularni qamrab oladi [4].

Mahalliy va mintaqaviy tarix muzeylari deyarli har bir shahar va tumanlarda uchraydi va bu muassasalar muayyan hududning tarixiy merosiga e'tibor qaratib, ko'pincha tarixiy jamiyatlar tomonidan boshqariladi. Ular shaxsiy hikoyalar,

mahalliy sanoat tarmoqlari va kundalik buyumlar orqali jamoa xotirasini saqlaydi, mahalliy hayotga yaqin va samimiy nigoh taqdim etadi.

“Jonli tarix” muzeylari. Bu muzeylar tarixiy davrlarni jonlantirib ko'rsatadigan immersiv tajribalardir. Maxsus libos kiygan xodimlar kundalik ishlarni bajaradi, tashrif buyuruvchilar bilan muloqot qiladi va hunar yoki kasblarni namoyish etadi. olonial Williamsburg yoki Plimoth Patuxet bunga yorqin misoldir – ular tarixni sezilarli va interaktiv qiladi.

Madaniy meros muzeylari. Muayyan etnik, madaniy yoki diniy guruhlarining tarixi, an'analari va hissalariga bag'ishlangan bu muzeylar ma'lum mansublikni ko'rsatish va ko'pincha madaniyatni saqlash hamda jamoani birlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Temuriylar muzeyi, Jadidlar muzeyi, Buxorodagi Ark muzeyi-qo'riqxonasi, va boshqalar. Muayyan mashhur shaxs – masalan, prezident kutubxonasi yoki taniqli yozuvchilar, san'at namoyandalari va davlat arboblarning hayoti tarixi hamda merosi mujassamlashgan uy-muzeylar. Ular bu shaxsning tarix va madaniyatga ko'rsatgan ta'siri haqida chuqur tasavvur beradi. Masalan, Oybek uy-muzeyi, Sadriddin Ayniy uy-muzeyi, Tamaraxonim uy-muzeyi, M.Burhonov uy-muzeyi, F.Xo'jayev uy-muzeyi va boshqalar.

Harbiy muzeylar. Urushlar, qurolli kuchlar va muayyan harbiy mojarolarga bag'ishlangan bu muzeylar xizmat va fidoyilik xotirasini saqlaydi. Ular ko'pincha harbiy kiyimlar, qurollar va shaxsiy xotiralar orqali hikoya qiladi.

Tarix muzeylari funksiyalarining bajarilishida katta mas'uliyat kuratorlar zimmasida bo'ladi. Ular tarix, arxeologiya va antropologiya fanlaridan mukammal bilimga ega bo'lishlari lozim. Kuratorlar sarg'aygan maktubdan tortib, qayta yaratilgan jang maydonigacha bo'lgan vositalardan foydalanib hikoya qilishlari mumkin. Ularning ishi puxta tadqiqot olib borish, eksponatlarning haqiqiylikini tekshirish, nozik buyumlarni saqlash va aniq hamda qiziqarli hikoyalar yaratishni o'z ichiga oladi [5].

Fan muzeylari dastlab insoniyat tarixini uning texnologik ixtirolari orqali namoyish etish joylari sifatida tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik barcha jismoniy va tabiiy fanlarga oid ekspozitsiyalarni qamrab olgan.

Fan va texnologiya muzeylari hamda markazlarida interaktiv ta'lim falsafasi ta'siri ostida, kompyuterlar va ular bilan bog'liq texnologiyalar muzey ekspozitsiyalarini nafaqat oddiy artefakt sifatida, balki interaktiv taqdimot vositalari yordamida taqdim qilishi ekskursiyalarni mazmunli tashkil etilishida ijobiy rol o'ynaydi. Ushbu muzeylarning o'z vazifalarini mazkur vositalar orqali "bajarishi" tomoshabin e'tiborini tortadi.

Ushbu mavzuni o'rganish jarayonidagi ikkilamchi tahlillar va intervyular fan va texnologiya muzeylarida qo'llanilayotgan zamonaviy vizual taqdimot usullari "biror faoliyatni bajarish o'qish yoki eshitishdan ko'ra ko'proq ta'limiy ahamiyatga ega" [6, 11-b] degan pedagogik qarashlarni tasdiqladi.

Tabiiy tarix muzeylari qazilmalar, tog' jinslari va minerallar, yo'q bo'lib ketgan hayvonlar, Quyosh tizimi kabi ko'plab mavzular bo'yicha ma'lumot beradi.

Tarix muzeylarining boshqa turlari esa o'tgan jamiyatlarga oid buyumlar – masalan, olimlar yoki shoirlarning portretlari, tarixiy hujjatlar, tangalar va medallarga e'tibor qaratadi. Atrofimizdagi dunyodan olingan artefaktlarni saqlagani sababli, tarix muzeylaridagi ekspozitsiyalar san'at muzeylaridagi ekspozitsiyalarga qaraganda tashrif buyuruvchilarning hayoti bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Yorliqlar, ekskursiyalar va bukletlar ko'pincha buyum yoki namunadagi ma'lumotni to'ldirish va uning ta'limiy qiymatini oshirish uchun qo'llaniladi, shuningdek tobora ko'proq interaktiv, kompyuterga asoslangan ekspozitsiyalar qo'shimcha ta'limiy maqsadlarda ishlatilmoqda.

Dunyoning mashhur tarix muzeylari orasida Parijdagi Luvr (san'at va qadimgi davrlar uchun) Xammurapi qonunlari kabi qadimiy yodgorliklarni o'z ichiga olgan, san'at va tarixni uyg'unlashtirgan yirik muzey, Londondagi Britaniya muzeyi (jahon madaniyatlari uchun) Rozetta toshi va Elgin marmarlari kabi jahon xazinalari bilan mashhur, Vashingtondagi Smitsoniy Amerika tarixi milliy muzeyi (AQSh tarixi

uchun), Pekindagi Xitoy milliy muzeyi (Xitoy merosi uchun) Xitoy tarixi va madaniyatining rivojlanishini va Qohiradagi Misr muzeyi (Qadimgi Misr uchun) Azteklarning Quyosh toshi kabi mahalliy sivilizatsiyalarni zamonaviy texnika vositalari va usullarini qo'llash orqali taqdim qiladi. Bu muzeylarning barchasi insoniyat sivilizatsiyasi, san'at va muayyan milliy tarixga oid ma'lumotlarni qamrab olgan boy to'plamlarga ega [7, 49-b].

Bolalar muzeyi – bu bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga xizmat qilishga bag'ishlangan, notijorat ta'limiy va madaniy muassasa bo'lib, qiziqishni uyg'otadigan va o'rganishga undaydigan ekspozitsiyalar hamda dasturlarni taqdim etadi. Bolalar muzeylari maqsad va uslub jihatidan ko'pincha fan muzeylariga juda yaqin bo'ladi, chunki ular tashrif buyuruvchilarni fan sohasidan xabardor qilishni maqsad qiladi va ma'lumotni yuqori darajada interaktiv, qo'l bilan bajariladigan, kashfiyotga asoslangan ta'lim usullari orqali taqdim etadi. Ushbu usullar interaktiv texnologiyalarni ham o'z ichiga oladi, biroq ular bilan cheklanib qolmaydi. Bolalar muzeylari – noyob jamoat muassasalari bo'lib, unda: bolalar rivojlanishiga mos va yuqori sifatli ta'lim tajribalari o'z ifodasini topgan. Barcha bolalar muzeylari hajmidan qat'iy nazar – mahalliy markazlar (ekspozitsiyalar kabi maxsus loyihalashtirilgan makonlar orqali), ta'limiy laboratoriyalar (dasturlar orqali) sifatida faoliyat yuritadi hamda bolalar uchun jamoat resurslari va himoyachilari vazifasini bajaradi [7]. Dunyoda eng mashhur bolalar muzeylardan biri bu, Indianapolis Bolalar muzeyi dunyodagi eng yirik bolalar muzeyi hisoblanadi. U besh qavatdan iborat bo'lib, "Dinosfera" va "Riley Sports Legends Experience" kabi interaktiv ko'rgazmalarni o'z ichiga oladi. Dunyodagi eng yirik bolalar muzeyi bo'lib, deyarli 500 000 kvadrat fut maydonni egallaydi. Unda "Dinosfera", fan mavzusidagi laboratoriyalar va 7 akrli ochiq sport hududi mavjud. Yana eng nufuzli muassasalar qatoriga Thye Strong National Museum of Play (Rochester, Nyu-York) O'yin tarixiga va uning ahamiyatiga bag'ishlangan. Muzey tarkibida Milliy o'yinchoqlar, Shon-sharaf zali, ikki qavatli ulkan arkada va ko'plab interaktiv hamda qiziqarli ekspozitsiyalar mavjud, ity Museum (Sent-Luis, Missuri) Sobiq

omborda tashkil etilgan 10 qavatli, 600 000 kvadrat futli noyob “ijodiy va chiqishli o‘yin maydoni”. Unda tunnellar, labirintlar va tom qismida 10 qavatli attraksion g‘ildiragi mavjud va Children’s Museum Houston Ko‘pincha bolalar uchun eng yaxshi muzeylardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Please Touch Museum (Filadelfiya, Pensilvaniya): Asosan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, erta bolalik rivojiga yo‘naltirilgan. Muzeyda 1908-yilga oid restavratsiya qilingan karusel mavjud. Thye Magi House (Sent-Luis, Missuri): 55 000 kvadrat futli viktorian uslubidagi bino bo‘lib, fan va tasavvurga yo‘naltirilgan qo‘l bilan o‘rganish markaziga aylantirilgan. Boston Children’s Museum (Boston, Massachusetts): Eng qadimgi bolalar muzeylaridan biri bo‘lib, uch qavatli chiqish inshooti va Yapon uyi kabi ko‘plab qiziqarli ko‘rgazmalarni taklif etadi. Children’s Museum of thye Arts (Nyu-York shahri): Bolalarga professional rassomlar bilan turli media vositalarida ishlash imkonini berib, ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bay Area Discovery museum (Sausalito, Kaliforniya): Oltin darvoza ko‘prigi etagida joylashgan bo‘lib, STeM yo‘nalishiga urg‘u beradi va ochiq tabiatga oid ekspozitsiyalarga ega. ArtSiene museum (Singapur): Xalqaro miqyosda mashhur muzey bo‘lib, san’at va fanni uyg‘unlashtirgan yuqori texnologiyali, immersiv installyatsiyalari bilan tanilgan. Ularning barchasi bolalar uchun keng ko‘lamli, qo‘l bilan bajariladigan va ko‘pincha noyob, tasavvurga boy o‘yin maydonlarini taklif etadi. Mazkur muzeylar bolalar va oilalar uchun jozibador bo‘lgan ko‘ngilochar va ta’limiy mavzularni tanlaydi. Masalan, tashrif buyuruvchilarga haqiqiy politsiya mashinasi yoki tez yordam avtomobilining ichiga kirishga ruxsat beriladi yoki suyuqlik bilan to‘ldirilgan shaffof idishlarni tebratish orqali dengiz to‘lqinlarining qanday hosil bo‘lishi namoyish etiladi. Bu turdagi muzeylarning ko‘pchiligi kompyuter texnologiyalaridan ham foydalanadi. Maqsadli auditoriya hisobga olinganda, ularning shovqinli muhitga ega bo‘lishi tabiiy holat hisoblanadi va odatda artefaktlar soni cheklangan bo‘ladi [8].

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv zamonaviy texnologiyalarni muzey faoliyatiga joriy etishda yagona universal metodikadan

foydalanish yetarli emas. Har bir muzey turi – san'at, tarix, fan va texnologiya, tabiiy tarix hamda bolalar muzeylari – o'zining tematik yo'nalishi, auditoriya tarkibi, ekspozitsion xususiyatlari va moddiy-texnik imkoniyatlariga ko'ra o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Shu bois interaktiv vositalarni tanlash va amaliyotga tatbiq etishda muzeyning konsepsiyasi, maqsadli auditoriyasi hamda ta'limiy va madaniy vazifalari asosiy mezon sifatida belgilanishi lozim. To'g'ri tanlangan metodika nafaqat ekspozitsiyaning jozibadorligini oshiradi, balki tashrif buyuruvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, bilim olish jarayonini chuqurlashtiradi hamda muzeyning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyatini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv zamonaviy texnologiyalarni muzey turiga mos ravishda metodik jihatdan asoslangan holda joriy etish muzey faoliyatining samaradorligini oshirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash va tashrif buyuruvchilarga yuqori sifatli madaniy-ta'limiy xizmat ko'rsatishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ражабов Т. Усовершенствование научно-методических возможностей обучения бухарским детским фольклорным песням в средней общеобразовательной школе//Наука, техника и образование. – 2021. – №2-2. 77. – С. 84-86.
2. Ражабов Т., Ибодов У. Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки//Вестник науки и образования. – 2020. – №21-2. 99. – С. 55-58.
3. Ражабов Т. Тематическая классификация узбекской детской народной музыки и игр//Наука, образование и культура. – 2020. – №3. 47. – С. 61-63.
4. Rajabov T. Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils//Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – №2.3. – P. 59-68.
5. Copyright Archives//Museum informatics. – 1993. – P. 9-15.

6. <https://www.wonderfulmuseums.com/museum/what-are-the-5-different-types-of-museums>
7. *ACM Four dimensionsof childrens museums. pdf*
8. *The Experimental gallery, 1992; Museum education consortium, 1992.*
.– New York, NY, and distributed by the ERIC Clearinghouse, Washington, D.C.